

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2023-12/5
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Алмбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арпбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улуғбек Темирбаевич, DSc
Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Қутлиев Учқун Отобаевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ.х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Қомилевич, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машириповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Қаримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотипов Гойипназар, қ.х.ф.д., проф.
Тожибаев Қомилжон Шаробитдинов, б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузўмбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№12/5 (109), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 281 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ

Шарипова Г.У. Принципы модернизации микрорайонов в городах Узбекистана	6
---	---

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ikromova M.A., Cho'liyev I.N. Mitoxondriya ATF ga bog'liq kaliy kanaliga salvifolin diterpenoidining ta'siri	8
Nasriddinova P.M., Raxmatullayev Y.SH. Ayrim dorivor o'simliklarning barglaridagi malondialdegid (mda) miqdorini aniqlash	10
Xayrullayeva L.M. Ochlikni neyroendokrin tartibga solish orqali semizlikni davolashda o'simlik birikmalaridan foydalanish	13
Муратова Г., Назарова Ф. Оқ дўнгпешона балиғи личинкаларининг озиқланиш биологияси	15

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ФАНЛАРИ

Тоҳиров А.О. Минерал ва органик ўғитларни заъфароннинг ўсиши, ривожланиши ҳамда ҳосилдорлигига таъсири	19
---	----

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abdullayeva Sh.E. Investitsion jozibadorlik – tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish omili sifatida	22
Sattarova M.D. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda moliyaviy mexanizmlaridan samarali foydalanish yo'nalishlari	24
Sayfutdinova N.F. O'zbekistonda innovatsiyalarni rivojlantirish bosqichlari	27
Toxirov R. Tadbirkorlik sub'yektlarining innovatsion rivojlanishining iqtisodiy o'sishga ta'sirining ekonometrik tahlili	29
Абдулхалилова С. Анализ показателей развития рынка страховых услуг Узбекистана	32
Абдуназаров О. Ўзбекистонда ерга давлат яккахокимлиги муносабатларидаги зиддиятлар ва уларнинг ижтимоий-иқтисодий оқибатлари	35
Бобожонова З.Ш. Рақамли технологиялар асосида мамлакатни ривожлантириш шароитида сингуляр иқтисодиётнинг аҳамияти ва иқтисодий асоси	37
Жўраев А.Т. Миллий иқтисодиётни ривожлантиришдаги янги ислохотлар – янги тараққиёт сари	39
Корабоев Э.А. Мамлакатдаги энергетика саноати корхоналарининг энерготизими ахборот хавсизлигининг ташкилий-иқтисодий ҳолати	42
Курбонов С.Н. Регулирование инвестиционных процессов в рамках повышения уровня жизни страны	47
Нуралиева М.М. Рост электронных услуг в страховой отрасли Узбекистана	49

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Axmedov B.A. Ko'k rangli qorako'l terilar	53
Eralov A.J. Samarqand viloyatining turizm salohiyati	55
Ergasheva Yu.A., Jabbarova I.X. Suv inshootlari qurilishi tarixi	57
Karimberdiyev M. Markaziy Osiya mutafakkirlarining davlat boshqaruviga oid qarashlarining tarixiy o'zgaruvchan xarakteri	59
Mamatqulov B.Sh. O'zbekistonda 1925-1954 –yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari	61
Mashrapov Sh. Buxoro amirligida ta'lim masalalari	64
Nizomiddinov O.B. 1920 - 30 yillarga oid arxiv hujjatlarida farg'ona viloyat aholisining savodsizlik masalalari	66
Norinov M.R. Namangan gullar bayrami tarixi	69
Olimjonov O. “Sirdaryo xazinasi” yoxud munchoqtepa yodgorligi xususida	71
O'ralov G'. O'zbekistonda turizmning rivojlanishida tarixiy-madaniy meros obyektlarini ahamiyati	73
Qodirova M.M. Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni	75
Qodirova M.M. Jamiyatning barqaror rivojlanishida ayolning roli	77
Ro'ziboyev D. Qorako'lchilik	80
Rustamova M.M. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda gender tenglik siyosati tarixshunosligi va o'rganilganligi	82
To'xtayev Sh.E. Shahrisabz viloyatida sovet hokimiyatining o'rnatilishi	86
Ungalov A.A. Ummaviylar va ularning Movarounnahrda muholifatchilari	88
Xoliqulova M. Ittifoqning g'arbiy hududlaridan sanoat korxonalarining evakuatsiya qilinishi	90
Каттаева Г.Ч. Сополли маданияти такинчоқларининг турлари	93
Кучаров Ж. Сохибқирон Амир Темурнинг Мин сулоласи сари ҳарбий юришга тайёргарлиги	95
Маматова М.Б. Из истории самаркандской чайной производств	97

Махмудов Ш. Қўкон-Бухоро муносабатларида Жиззахнинг аҳамияти	100
Мўминов У. Қарши шаҳри демографияси	103
Насретдинова Д. Наманганда маориф ишларини йўлга қўйилиши	105
Орипова Л. Қашқадарё воҳаси адабий муҳитининг ривожланиши тарихи	107
Очилов Ф. Ўзбекистонда ногиронлиги бўлган шахсларни ҳимоя қилишга қаратилган давлат ва нодавлат ташкилотларининг фаолияти	110
Серикбаева Ш.Э. Архитектурные сооружения эпохи восточного ренессанса как основа туристической деятельности современного Узбекистана	112
Сулайманова С., Муродов Ш. Илк ўрта асрларда Суғд конфедерацияси бошқарувида маҳаллий унвонларнинг ўрни	114
Ташкенбаева Д.А. Обзор развития промышленности в туркестане в работах зарубежных исследователей XX века	117
Тошпўлатов Б. Тиббиёт йўналишидаги олий таълим муассасалари тармоғининг кенгайтирилиши ва натижалари	119
Худойкулов И.Б. Қашқадарёда совет даври судларининг ташкил этилишининг тарихий натижалари	121
Эркаева Г.П. Инновационные подходы к развитию человеческого капитала в регионах	124
Қувватова Н. Ўзбекистон қишлоқ ҳўжалиги иккинчи жаҳон уруши йилларида	126
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
A'zamov S. Axborot-qidiruv tezaurus (mukammal lug'at)larda va bir tilli lug'atlarda soha terminologik birliklarining berilishi	130
Abbozov O.Q. Toponimlar yondosh fanlar obekti sifatida	132
Abulova Z.Z. The essence of ethnolinguocultural consciousness	134
Bafoyeva N.S., Teshaboyeva Z.Q. Buyuk Britaniya va AQSH oliy o'quv yurtlaridagi tarjimaga oid fanlarning o'qitilishi	137
Batirkhanova M.O. Somatizmlarning badiiy asardagi qiyosiy tahlili	140
Djalilova Z.B., Ibotova M. Linguistic features of political speech	142
Djalilova Z.B. Ingliz xalq udumlarida gulga oid tushunchalarning badiiy-konseptual ifodasi	144
Djumayeva N., Akhmadova N. The essence of concept in cognitive linguistics	147
Kenjayev T. Fitratning mumtoz adabiyot tarixiga doir asarlari tadqiqi	149
Kosimova M.U. Hujjatlarida otli so'z birikmalari turlarining ishlatilishi	152
Kurbonova N.R., Anvarova U.J. The syntactical and lexical analysis of the poem "I wandered lonely as a cloud" by William Wordsworth	155
Nekboyeva M.T. Somerset Moem hayoti va ijodi hamda uning teatr sohasiga qo'shgan hissasi	157
Nematjanova D. "Yetti o'lchab bir kes" maqolida 7 raqamining qo'llanilishi xususida	159
Nematova M. Lakuna va kognitiv lingvistika	162
Omonova B.I. The challenges in practical teaching in the field of tesol and specific solutions	164
Ortiqova G.I. Pictorial expression as an object of metaphor	166
Qurbonova N.R., Khamdamova M. "Jeyn Eyrr" va "Keng sargasso dengizi" romanlarida tush motivi va uning qahramonlar taqdirida aks etishi	168
Rasulova N.A. Kognitiv tilshunoslikda lisoniy shaxs muammosi	170
Rozikova G.Z. Bog'langan qo'shma gaplarda ko'p ma'nolilik	173
Ribinskaya E.G. A factor affecting competitiveness: the young learner's development of communicative competence	175
Sadullayev F.B., Quadratullayeva N.T. Tomas Vulfning badiiy tasvir mahorati	177
Sadullayev F.B., Fayzullayeva A.I. Uilyam Folknerning "Dry september" hikoyasida jamiyat va shaxs munosabatlari tasviri	179
Saitov S.Dj. AQSH va o'zbek adabiyotida realistik hikoya taraqqiyoti: adabiy ta'sir va o'ziga xoslik	180
Saitov S.Dj. Humor and irony in the stories of O. Henry and uzbek writers	182
Sulaymonov B. Izoh tipidagi o'quv lug'atlar va uning asosiy turlariga doir mulohazalar	184
Suvonova D.K. Exploring taste adjectives and their translation in the uzbek language	187
Tursunov M.M. Media discourse as a modern linguistic object	188
Tukhtayeva F.I. The symbol of china in book of "The house of Earth"	191
Yusufjonova Sh.M. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi va ularning tasnifi	192
Zakirova Kh.A. Communication through language for special purposes in the example of urban planning terminology	195
Zakirova X.A. Linguistic and cultural characteristics of interpersonal relations in urban discourse	197
Абдупаттоев М.Т., Шодмонов Х.П. Тилшуносликда конвергенция назарияси масалалари	198

diqqatga sazovordir. Bu to'g'risida u "Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va mashhuri bashariyatning boshlanishidir"^[4], – deb yozadi.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo'lib kelgan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga, odil hukumdor tarbiyalashga, valiaxd va shaxzodalarni tarbiyalashga va axloqli va aqil zakovatli o'g'il qizlarni tabiyalashga kata etibor berishgan. Jumladan: "Kalila va dimna" nomi bilan mashhur bo'lgan xindlarning "Panchatantra" (Besh hikmat), "To'tinoma" nomi bilan shuxrat qozongan "Shukasaptati" (To'tining yetmish hikoyasi), Yusuf hos Hojibning "Qutadg'u bilig" (Baxt saodatga yo'llovchi bilim), Muslixiddin Sadiyning "Guliston" va "Bo'ston", Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Maxbub ul-qulub" (Ko'ngillarning sevgani), "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi), Gulxaniyning "Zarbulmasal" kabi o'nlab durdona asarlari asrlar mobaynida farzandlar tarbiyasida dasturulamal vazifasini o'tab kelmoqda. Bu asarlar necha-necha avlodga poklik, rostgo'ylik, juvonmardlik fazilatlarini singdirib kelayotgani sir emas. Unsurulmaoliy Kaykovus qalamiga mansub "Qobusnoma" asari Sharq xalqlari orasida ma'lum va mashhur^[5].

XV asr oxiri XVI asr boshlarida yashab ijod etgan mashhur bobolarimimizdan yana biri Mavlono Muhammad Qozidir. Muhammad Qozining asosiy asari "Silsilat ul-orifin va tazkirat us-siddiqin" bo'lib, ko'pincha qisqacha "Silsilat ul-orifin" deb yuritiladi. Risolada mamlakatda tartib va barqarorlik bo'lishi uchun podshoh amal qilishi lozim bo'lgan muhim shartlar, podshoh va fuqarolarning o'zaro munosabatlari, davlat siyosatining o'ziga xos nozik va murakkab tomonlari haqida mulohaza yuritiladi^[6].

Xulosa qilib aytganda ushbu asarlarni yozilishiga jamiyatni va davlat boshqaruvini yildan-yilga takomillashtirish zarurligi taqazo etgan. Bizning fikrimizcha, bugungi kunda rahbar kadrlarni yaratishda, davlat boshqaruviga oid yaratilayotgan qonunlarda ushbu asarlarning mazmun mohiyatidan kelib chiqib yaratilsa davlat boshqaruvida sifat ko'rsatgichi yanada yuqoriroq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев. Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 22.
2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Т.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – Б. 223.
3. Одилокориёв Х. Т., Раззаков Д. Х. Сиёсатшунослик. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – Б. 72.
4. Манавият yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). – Т.: Xalq merosi, 200. – Б. 107.
5. Кайковус. Қобуснома. – Т.: Ўқитувчи, 2006. – Б. 4.
6. Мавлоно Муҳаммад кози. Хукмдорга ўғитлар. – Т.: Шарк, 1999. – Б. 1-2.

UO'K 93/94 377.2

O'ZBEKISTONDA 1925-1954 – YILLARDA SANOAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR VA ULARNING NATIJALARI

(Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida)

B.Sh.Mamatqulov, PhD, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. O'zbekiston janubiy hududlari Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 1925-1954-yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan tadbirlar va ularning natijalari gaz-oltingugurt sanoatining yuzaga kelishi va rivojlanish tarixi ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, to'qimachilik, mashinasozlik, energetika, o'gir sanoat, fabrika, kimyo sanoati, zavod, infrastruktura, fabrika.

Аннотация. Анотированная история появления и развития газосернистой промышленности в южных регионах Узбекистана, в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях, была проанализирована на научной основе по мерам, реализованным в промышленной сфере в 1925-1954 годах.

Ключевые слова: Узбекская ССР, текстиль, машиностроение, энергетика, обрабатывающая промышленность, фабрика, химическая промышленность, завод, инфраструктура, фабрика.

Abstract. The history of the emergence and development of the gas-sulfur industry in the southern regions of Uzbekistan, in the Kashkadarya and Surkhandarya regions, was analyzed on a scientific basis by the measures implemented in the industrial sphere in 1925-1954 and their results.

Key words: Uzbekistan SSR, textile, machinery, energy, manufacturing, factory, chemical industry, factory, infrastructure, factory.

O'zbekistonda 30-yillarda ham sanoat qurilishi sur'atlarini asossiz ravishda jadallashtirish tendensiya davom ettirildi. Respublika iqtisodiyotida mamlakatning asosiy paxta bazasi sifatida ixtisoslashuvi yanada kuchaytirildi. Shuningdek, to'qimachilik, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini ko'paytirish vazifalari qo'yildi. O'zbekistondagi sanoat korxonalari asosan Markaz manfaatlariga muvofiq tashkil etilib, mintaqa aholisi uchun zarur bo'lgan zavod va fabrikalar qurish masalasi hech kimni qiziqitirmadi. Urushdan oldingi besh yilliklar davrida sanoatning xalq xo'jaligida egallagan salmog'i 1928-yildagi 43 foizdan 1940-yilda 70 foizga yetdi. Ammo sanoat Markaz tasarrufida edi. Masalan, 30 yillarning o'rtalarida O'zbekistondagi korxonalarning 90 foizi ittifoq tasarrufida bo'lgan [1, 8]. Ikkinchi besh yillikda 189 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi. Bu davrda O'zbekiston og'ir sanoati uchun 365,7 mln rubl yoki xalq xo'jaligiga sarflash rejalashtirilgan mablag'ning 17,6 foizi mazkur tarmoqqa ajratildi. Ip, gazlama, ipak yigiruv, tikuvchilik, mo'ynachilik, poyafzal, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalariga oid zavod va fabrikalar O'zbekiston uchun mutloqo yangi edi. 1933-yili O'zbekiston sanoat korxonalarining 40 foizi Toshkent okrugi, 31,4 foizi Farg'ona, 11,1 foizi Zarafshon, 6 foizi Qashqadaryo, 5,3 foizi Surxondaryo, 6,4 foizi Xorazm okrugiga to'g'ri keldi [2, 4]. 1940-yil O'zbekiston sanoat korxonalarining viloyatlar bo'yicha joylashuvida aksariyat sanoat korxonalari Toshkent, Farg'ona va Samarqand hududida faoliyat yuritgan bo'lsa, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm hududlarida sanoat korxonalar sonining kamligi bilan izohlanadi. Yirik sanoat korxonalarining hududlar kesimida joylashuvdagi nomuvofiqliklarining sababi sifatida bizningcha:

Birinchidan, hududlarda yashagan aholi soni bilan bog'liq xolda, aholi zich yashagan hududlarda sanoat korxonalari ko'proq tashkil etildi;

Ikkinchidan, O'zbekiston hududida 1925-yilga qadar ham sanoat korxonalari mavjud edi, Buxoro va Xorazmdagi sanoat korxonalarining tashkil etilishidagi sustkashlik monarxiya tizimining asoratlari sifatida izohlansa, Turkiston o'lkasida Farg'ona va Toshkent okruglarida sanoat korxonalari tezkorlik bilan qurildi;

Uchinchidan, Markazning manfaatlari, qolaversa o'lka boyliklarini tashib ketish borasida temir yo'llar mavjud bo'lgan hududlarda sanoat korxonalarining tashkil etilishi ayni muddao edi;

To'rtinchidan, infrastruktura ya'ni elektr energiyasi, yo'l, shuningdek, kadrlar tayyorlash masalasida o'rta maxsus hamda oliy o'quv yurtlarining tashkil etilishi ham hududlardagi sanoat korxonalarining soniga qarab belgilandi.

Beshinchidan, Farg'ona, Toshkent va Samarqand viloyatlarida azaldan hunarmandchilik rivojlangan.

Tog'-kon sanoati ham so'zsiz bu davrda tinimsiz rivojlantirib borildi. Toshko'mir qazib chiqarish va undan sanoatda foydalanish yildan yilga oshirib borildi. Masalan, 1934-yil 1500 ming rubl, 1934-yil 2380 ming rubl, 1935-yil 3970 ming rubl, 1936-yil 5925 ming rubl, 1937-yil 8000 ming rubllik toshko'mir ishlab chiqarildi. 1933-yildan 1930-yilga qadar toshko'mir ishlab chiqarish 570 foizga ko'paydi. O'zbekistonda ko'mirni sanoat ulushida qazib olish 1930-yillarning oxiridan boshlandi. 1932-1937-yillarda O'zbekistonda toshko'mir ishlab chiqarishda o'sish jarayoni kuzatildi. Masalan, Norin №1 shaxtasida toshko'mir ishlab chiqarish 1933-1937-yillarda 100 ming tonnadan 700 ming tonnaga, Shurab №8 shaxtasida toshko'mir ishlab chiqarish shu yillarda 100 ming tonnadan 500 ming tonnaga ko'paydi [3, 219].

O'zbekistonda boy xom ashyo manbalari bo'lishiga qaramay, XX asrning 30-yillariga qadar kimyo sanoati deyarli bo'lmagan. Ohak kuydirish, o'simlik bo'yog'i olish, oltingugurt ishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, savdogarlik bilan shug'ullangan bir qancha kichik korxonalar faoliyat olib borgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining vujudga kelishi Farg'ona vodiysidagi Sho'rsuv oltingugurt konining ishga tushirilishi bilan boshlandi. 1932-yildan Chirchiq elektr kimyo kombinati qurilishi boshlanib, bu korxona 1940-yil oktabrdan mahsulot bera boshladi. Shu yili respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hissasi 0,8 foizga teng bo'ladi, bu sanoat sohada band bo'lgan ishchilar esa 1,5 foizini tashkil etdi. Ikkinchi va uchinchi besh yillik davrda ham O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish uchun barcha chora-tadbirlar ko'rildi. Paxta ekin maydonlari kengaytirib borildi. 1933-yil O'zbekiston bo'yicha 795671 tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1937-yil bu ko'rsatkich 1116325 tonnaga yetdi. Farg'onada 431 246 tonnadan, 588300 tonnaga, Xorazmda 46151 tonnadan, 75400 tonnaga ko'paydi. Farg'ona vodiysida bu yillarda paxta maydoni bor yo'g'i 4,6 ming gektarga ko'paytirgan bo'lsa. Hosildorlik esa 34 foizga oshirildi. Xorazmda esa hosildorlik 60 foizga oshirildi.

1934-yil O'zbekiston paxta tozalash zavodlari 37 tani tashkil etib, ulushi 45 foizi Farg'ona, 18 foizi Zarafshon vohasi, 13 foizi Toshkent, 11 foizi Xorazm, 8 foizi Surxondaryo va Qashqadaryo, 5 foizi Buxoro viloyatiga to'g'ri keldi [4, 302].

Paxta ittifoqi markaziy shaharlari to'qimachilik fabrikalar uchun asosan xom ashyo bo'lganligi tufayli, uni ishlab chiqarish ko'paytirib borildi. Shuningdek, paxta tolasi ishlab chiqarish ham yildan yilga

oshirildi. 1924 – 1925-yilda 64,5 ming tonna paxta tolasi tayyorlangan bo'lsa, 1940-yil 538 ming tonna tayyorlandi. Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan paxta tolasining 178,4 ming tonnasi Andijonga, 98,2 ming tonnasi Farg'onaga, 21 ming tonnasi Surxondaryo, 36,3 ming tonnasi Xorazm viloyatiga 7,8 ming tonnasi Qashqadaryo hisobiga to'g'ri keldi. 1937-yildan sun'iy ipakdan gazlamalar to'qish boshlandi. O'zbekistonda qadimdan poyafzal tayyorlashning o'ziga xos usullari va an'analari mavjud edi. Poyafzal tikuvchi kosiblar qo'lda aholining turli qatlamlari uchun har xil andozalarda etik, maxsi, kavush tikkanlar. Birinchidan poyafzal fabrikasi 1927-yil Toshkent shahrida ochildi. 1935-yil shu shaharda ikkinchi poyafzal fabrikasi ishga tushirildi. Bu turdagi korxona 1938-yil Buxoroda, 1939-yil Samarqand, To'rtko'l, Termiz shaharlarda, 1940-yil Andijon, Qo'qon, Chirchiq, Namangan shaharlarida kichik hajmdagi payafzal fabrikalari ishga tushirildi.

30-yillarda mahalliy hunarmandchilik rivojlantirish ikkinchi darajali masalaga aylandi. Respublikada hunarmandchilik artellari soni yildan yilga kamayib bordi. Masalan, 1933-yil O'zbekistonda hunarmandchilik soniyellari 495 ta bo'lsa, 1938-yil ular soni 321 taga tushdi. 1938-yili hunarmandchilik soniyellari 402,7 mln rubllik mahsulot ishlab chiqardi. Sovet davlat baliqchilik sanoatiga muayyan e'tibor qaratdi. Mazkur sanoat tarmog'i asosan Qoraqalog'iston ASSR yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1928-yil 123,0 ming rubl, 1937-yil 2,1 mln rubl ajratildi[5, 271].

1934-yil Mo'ynoq baliq zavodiga 1436 ta ishchi faoliyat olib bordi. Bu zavod 1933-yil 565 ming rubllik, 1940-yil 1826 ming rubllik mahsulot ishlab chiqardi. Mo'ynoq go'sht-baliq konserva zavodi qurilishi 1935-yil boshlandi. Sobiq Ittifoqdagi eng yirik baliq urug'i tozalaydigan zavod Nukusda 1934-yil ishga tushirildi. 1937-yilda Termizda yog', 1938-yilda esa non zavodi, 1939-yilda Denovda vino zavdolari ishga tushirildi.

Sobiq SSSR tomonidan amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati natijasi sifatida ayrim tarixchilar, xususan sovet davri tadqiqotlarida besh yillik rejalar sobiq SSSRning sanoatlashtirish siyosatidagi muhim bosqichlari sifatida e'tirof etiladi. Urushgacha 3 ta besh yillik rejalarini ya'ni, birinchi besh yillik (1928-1932-yy), ikkinchi besh yillik (1933-1937-yy), uchinchi besh yillik (1938-1942-yy) rejalarini qabul qilingan. Mazkur besh yillik rejalar davrida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha tarixchilar mamlakatning sanoatlashuviga baho berishlari, industriya sohasida ma'lum natijalarga erishilganligini e'tirof etishlari tabiiy. Biroq, biz tomonimizdan O'zbekistonda amalga oshirilgan sanoatlashtirish davrini ikki davrga ajratgan xolda, tahlil va tadqiq etish taklif etiladi:

Birinchi davr. 1925-1932-yillar. Bu davr sanoatlashtirishning sun'iy ravishda jadallashtirilishi va uning oqibatlari sifatida O'zbekiston SSRda sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishi, ma'muriy buyruqbozlik, noaniq topshiriqlar, mutaxassis kadrlar tanqisligi, sanoat sohasida oliy o'quv yurtlari va ishchilarning malaka oshirish tizimini yaratilmaganligi, amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi bilan izohlanadi.

Ikkinchi davr. 1933 – 1941-yillar. Mazkur davr O'zbekistonda amalda yirik sanoat korxonalarining tashkil etilishi, mashinasozlik, energetika, kimyo sanoati, ipakchilik, uzumchilik va umuman qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining barpo etilishi, og'ir sanoatning rivojlanishi bilan izohlanadi.

Ayrim xorijlik tadqiqotchilar tomonidan SSSRda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosatiga ijobiy baho berilib, sanoat ishlab chiqarishning mutlaq hajmlari bo'yicha XX asrning 30-yillari oxirida SSSR dunyoda AQShdan keyin 2-o'rinni egallaganligi ta'kidlanadi. SSSRda sanoat texnologiyasi yaratilishi mumkinligi, shuningdek, G'arbdan farqli o'laroq SSSRda bozor iqtisodiyoti va fuqarolik jamiyati yo'q edi. V.Lelchuk "SSSRni sanoatlashtirish: tarixi, tajribasi, muammolari" nomli risolasida SSSRdagi sanoatlashtirish jarayoniga yuqori baho berib, quyidagi fikrlarni bildiradi:

Birinchidan, SSSRda sanoat o'zgarishi ikkinchi darajali xarakterga ega edi. Rivojlangan mamlakatlarga qaraganda ancha kechroq amalga oshirilganligi sababli, yangi qurilgan va rekonstruksiya qilingan korxonalarda chetdan eksport qilinadigan uskuna va texnologiyalar, shuningdek, mehnatni tashkil etish usullari qo'llanilgan.

Ikkinchidan, ishlab chiqarishning sanoat turi dastlab iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida shakllanishi mumkin. Sanoatlashtirishda og'ir va mudofaa sanoatining ustuvor rivojlanishiga e'tibor qaratildi.

Uchinchidan, sanoat texnologiyasi yollanma mehnatdan ortiqcha qiymat olish uchun yaratilgan va kapitalistik ekspluatatsiya vositasi bo'lib xizmat qilgan. Stalinistik model, asosan, sotsialistik bayroq ostida dastlabki sanoat kapitalizmini qayta ishlab chiqardi.

To'rtinchidan, 70-yillarga qadar sovet jamiyatining muhim xususiyati uning kelajakka intilishi, qo'rquv va dahshatga dosh berishga tayyorligi, o'z farzandlari va umuman kelajak avlodlari uchun porloq kelajak uchun qat'iy intizom va g'ayriinsoniy texnologiyalarga bo'ysunish edi".

Xullas, O'zbekistonda urushdan oldingi yillarda ham sanoat sohasini jadallashtirish tendensiyasi respublika iqtisodiyotining sobiq Ittifoqning asosiy paxta bazasi sifatidagi ixtisoslashuvi yanada avj oldirildi. Bu davrda O'zbekiston xalq xo'jaligida sanoat ishlab chiqarish salmog'i yildan yilga oshib borgan bo'lsada, ammo eng asosiy sanoat korxonalari ittifoq tasarrufida bo'lib, u turdagi korxonalarining salmog'i barcha sanoat korxonalarining 90% ni tashkil qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R-767-fond- Butunittifoq paxta sanoati xodimlari kasaba uyushmasining O'rta Osiyo viloyat qo'mitasi fondi, 1-ro'yhat, 49- yig'ma jild, 8-varaq.
2. Yoqubov G'ulom. Sanoatimizdagi o'pirilishlarga qarshi kurashimiz! // Qizil O'zbekiston. - 1930.- 21-fevral;
3. Jo'raqulov O., Ergasheva J. Qashqadaryo sanoati tarixi. – Qarshi: Nasaf, 1996; 219 bet
4. Mo'minov N. M. Sovetlarning O'zbekistonni sanoatlashtirish uchun kurashi. (1928 – 1932-yillar). – T., 1959. – 302 bet
5. Tursunov S. va boshqalar. Surxondaryo tarixi. –T., 2004. – 271 bet.

UO'K 908

BUXORO AMIRLIGIDA TA'LIM MASALALARI

Sh.Mashrapov, o'qituvchi, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, Namangan

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim, ma'rifatning rivojida madarasalarning o'rni, xususan, eng yirik va qadimiy ilm-fan markazi bo'lgan – Buxoro amirligidagi madrasalar faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Madrasa, Buxoro, tarbiya, talaba, guruh, mudarris, a'lo, avsat, madaniyat, ma'rifat, ta'lim.

Аннотация. В данной статье освещена роль медресе в развитии образования и просвещения, в частности, деятельность медресе в Бухарском эмирате, который является крупнейшим и старейшим центром науки.

Ключевые слова: Медресе, Бухара, образование, студент, группа, преподаватель, отлично, авсат, культура, просвещение, образование.

Abstract. This article highlights the role of madrassas in the development of education and enlightenment, in particular, the activities of madrassas in the Bukhara Emirate, which is the largest and oldest center of science.

Key words: Madrasah, Bukhara, education, student, group, teacher, excellent, Avsat, culture, enlightenment, education.

Madrasalar ta'lim tizimi har qanday ijtimoiy sohani rivojlantirishda o'ziga xos omil bo'lib hizmat qiladi. Yillar davomida shakllangan ta'lim tizimini yangicha ko'rinishda barpo etish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu yo'nalishdagi harakatlarni amalga oshirishda Buxoro amirligi madrasalaridagi ta'lim tizimi ham o'ziga xos rol o'ynagan. Buxoro dunyo sivilizatsiyasiga beshik bo'lgan shaharlardan biridir. O'zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev madrasa va ilm markazlari ijtimoiy hayotdagi yuksak mavqeni alohida ta'kidlab, ularning o'ziga xos ma'naviyatni yuksaltirishda " ... mintaqamiz, avvalambor, bugungi O'zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida tashkil etilgan ilm markazlari tashkil etishni" davr taqozo etishiga alohida e'tibor qaratdi[1]. Yurtimizning qadimiy shaharlaridan bo'lgan Buxoro ham o'zining ko'p sonli madrasalari bilan nom taratgan. Shaharga turli yerlardan ilm olish uchun ko'plab talabalar kelgan, shu sababli "talabalar shahri" deb nomlashgan. Bu an'ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so'z ketganda, avvalo, uning shu jihatiga katta e'tibor qaratganlar. Xususan ashtarxoniylar davri muarrixi Maxmud ibn Vali (XVI asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday baholaydi: "Olimlarning ko'pligidan, uni olimlar va ilm-fan bulog'i deb ataydilar". Buxoroga XIX asrda safar qilgan E.K.Meyendorf esa Buxoroning islom olamida tutgan o'rnini quyidagicha ta'riflaydi: "O'zining ko'plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u "sharif" nomiga sazovor bo'lgandir". Rus sayyohi N.Xanikov o'z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma'rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta'riflab: "Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi", deydi. J.Kunits ham

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ
МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

**№12/5 (109)
2023 й., декабрь**

Ўзбекча матн муҳаррири:
Русча матн муҳаррири:
Инглизча матн муҳаррири:
Мусахҳих:
Техник муҳаррир:

Рўзметов Дилшод
Ҳасанов Шодлик
Мадаминов Руслан, Ламерс Жон
Ўрозбоев Абдулла
Шомуродов Журъат

“Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси” Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги
Хоразм вилоят бошқармасида рўйхатдан ўтган. Гувоҳнома № 13-023

Теришга берилди: 06.12.2023
Босишга рухсат этилди: 15.12.2023.
Қоғоз бичими: 60x84 1/8. Адади 70.
Ҳажми 19,0 б.т. Буюртма: № 13-Т

Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими
220900, Хива, Марказ-1
Тел/факс: (0 362) 226-20-28
E-mail: mamun-axborotnoma@academy.uz
xma_axborotnomasi@mail.ru



(+998) 97-458-28-18